



Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 281,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 216,6** mlrd. so'mni (**11,7 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 064,8** mlrd. so'mni (**14,4 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 635,5** mlrd. so'mni (**36,2 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 281,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **110,1** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o'sish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **86,9** % va yirik korxonalar hissasiga **13,1** % to'g'ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **34,8** % ulush bilan **3 228,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,7** % ulush bilan **162,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **8 064,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **14,4** % ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,9** % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,7 %), Yangiariq (99,4 %), Bog'ot (99,2 %) va Shovot (98,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	9 281 411,9	110,1	1 216 619,9	88,3	8 064 791,9	114,4
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	3 228 254,3	106,2	997 474,8	86,0	2 230 779,5	118,6
Xiva	356 677,3	110,6	19 963,7	87,2	336 713,5	112,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	504 470,6	116,9	4 045,7	23,3	500 424,9	120,8
Gurlan	789 778,8	116,2	20 830,0	190,1	768 948,8	115,0
Qo'shko'pir	376 411,3	103,6	18 232,1	103,6	358 179,2	103,6
Urganch	901 843,3	108,8	56 641,1	131,2	845 202,2	107,6
Hazorasp	966 277,6	116,1	49 583,5	2,2 m.	916 694,2	113,2
Tuproqqal'a	161 962,2	109,4	458,9	105,6	161 503,3	109,4
Xonqa	559 802,3	112,5	21 415,1	43,8	538 387,2	120,0
Xiva	247 098,3	108,9	4 459,8	106,7	242 638,5	109,0
Shovot	565 282,8	115,5	9 705,5	47,8	555 577,3	118,5
Yangiariq	382 737,9	104,5	2 242,4	28,8	380 495,5	106,1
Yangibozor	240 815,0	120,0	11 567,2	4,9 m.	229 247,8	115,6

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **11,7 %** ga kamaydi va **1 216,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 064,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **14,4 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86,9 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,7 %), Yangiariq (99,4 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,1% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (30,9 %), Urganch tumanida (6,3 %) va Xiva shahrida (5,6 %) kuzatildi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 874,9** ming so'mni (2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **8,5 %** ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Yangibozor (118,5 %), Bog'ot (114,9 %), Gurlan (114,7 %), Shovot (113,8 %), tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (22 187,3 ming so'm), Gurlan (5 254,7 ming so'm) va Hazorasp (4 892,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-noyabr

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	4 874,9	108,5
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	22 187,3	105,2
Xiva	3 790,4	108,7
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	3 010,0	114,9
Gurlan	5 254,7	114,7
Qo'shko'pir	2 158,3	102,4
Urganch	4 447,0	106,7
Hazorasp	4 892,5	113,9
Tuproqqal'a	2 928,8	109,2
Xonqa	2 955,7	110,8
Xiva	1 668,5	107,2
Shovot	3 275,1	113,8
Yangiariq	3 249,0	103,0
Yangibozor	2 721,1	118,5

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 635,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **36,2** % ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **874,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 113,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **760,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 176,3 %) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 874,6 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 760,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1635,5	136,2	874,6	113,6	760,9	176,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	366,5	146,9	277,4	149,0	89,2	140,8
Xiva	42,2	165,2	41,7	163,3	0,5	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	226,8	133,3	45,4	84,6	181,4	155,7
Gurlan	171,2	190,7	51,8	94,8	119,4	3,4 m.
Qo'shko'pir	100,4	81,6	68,5	82,4	31,9	79,8
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	180,2	150,7	95,7	124,3	84,5	198,2
Tuproqqal'a	27,9	106,0	23,4	102,4	4,5	129,3
Xonqa	157,1	168,0	121,8	151,6	35,3	2,7 m.
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	252,1	132,2	77,2	72,2	174,9	2,1 m.
Yangiariq	54,4	79,4	34,0	70,8	20,4	99,5
Yangibozor	56,8	127,1	37,8	119,7	18,9	144,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI



9,6
mlrd. so'm

Tuzlamalar



364,2
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



62,2
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

117,8
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



18,5
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

40,2
mlrd. so'm



Tuxum

137,2
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

38,6
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

9,6
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

12,0
mlrd. so'm



Ziravorlar

64,9
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **874,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**364,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **760,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **701,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar savdosi **51,9** mlrd. so'mni, parrandalar savdosi **7,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






2021- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,0 %** ni tashkil etib, **95,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **5,2 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **99,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	95 591,4	105,2	699,6	8,6	94 891,8	114,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	40 175,2	101,9	-	-	40 175,2	109,4
Xiva	2 596,1	113,9	-	-	2 596,1	113,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	3 927,3	108,1	-	-	3 927,3	108,1
Gurlan	2 777,4	110,5	-	-	2 777,4	110,5
Qo‘shko‘pir	1 654,3	110,2	-	-	1 654,3	110,2
Urganch	16 376,6	108,0	699,6	110,9	15 677,1	107,8
Hazorasp	7 521,0	107,7	-	-	7 521,0	107,7
Tuproqqal‘a	1 486,8	108,1	-	-	1 486,8	108,1
Xonqa	3 366,9	111,6	-	-	3 366,9	111,6
Xiva	2 422,2	112,0	-	-	2 422,2	112,0
Shovot	9 229,5	100,6	-	-	9 229,5	2,1 m.
Yangiariq	1 642,7	108,9	-	-	1 642,7	108,9
Yangibozor	2 415,3	112,4	-	-	2 415,3	112,4

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 897,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **3,3 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **643,6** mlrd. so'mni (**17,3%** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 253,9** mlrd. so'mni (**11,2 %** ga ko'payish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Gurlan tumani (398,1 m.), Bog'ot tumani (354,7 m.), Yangibozor tumani (9,7 m.) va Xonqa tumani (4,0 m.) da kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (5,7 m.), Bog'ot (3,5 m.) va Hazorasp (193,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	2 897 517,5	103,3	643 575,4	82,7	2 253 942,1	111,2
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 361 098,1	100,5	190 190,3	63,3	1 170 907,8	111,2
Xiva	100 126,2	103,9	795,3	110,9	99 330,9	103,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	65 440,7	3,5 m.	43 405,1	354,7 m.	22 035,5	119,5
Gurlan	106 524,3	5,7 m.	73 332,7	398,1 m.	33 191,7	180,2
Qo'shko'pir	16 408,2	131,4	12,3	8,7	16 396,0	132,8
Urganch	672 919,2	112,2	255 325,7	113,2	417 593,5	111,6
Hazorasp	62 444,3	193,4	18 849,2	81,4 m.	43 595,1	136,0
Tuproqqal'a	14 287,5	5,8	27,3	0,0	14 260,2	118,2
Xonqa	178 064,2	138,7	59 651,5	4,0 m.	118 412,7	104,4
Xiva	196 685,9	104,7	237,0	96,8	196 448,8	104,7
Shovot	43 844,6	105,5	51,6	110,3	43 793,0	105,5
Yangiariq	29 473,5	150,7	282,1	111,2	29 191,4	151,2
Yangibozor	50 200,8	103,6	1 415,3	9,7 m.	48 785,6	101,0

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **2 253,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **11,2 %** ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **77,8 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Qo'shko'pir (99,9 %), Shovot (99,9 %), Xiva (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (31,2 %) va Bog'ot tumaniga (33,7 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09